

UO'T: 633.11:631.52

**LALMIKORLIK SHAROITIDA YETISHTIRILGAN QATTIQ
BUG'DOYNING O'SUV DAVRIDA TUPROQDAGI NAMLIK MIQDORI**

A.E.Qarshiyev

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, q.x.f.f.d

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi kunda respublikamizning lalmikor maydonlarida ekib kelinayotgan yangi qattiq bug'doy navlarining o'suv davrida tuproqdagi namlik miqdorining tuproq qatlamlari bo'yicha o'zgarishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qattiq bug'doy, Mingchinor navi, tuproq namligi, tuproq namunalari, tuplanish-naychalash, sut-mum pishish, tuproqning haydov qatlami.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda dunyoda aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda boshqoli don ekinlari, jumladan, qattiq bug'doy hosildorligini va don sifatini oshirish muhim ahamiyatga ega. Dunyo bo'yicha 2016 yilda jami 724,0 mln. tonna bug'doy doni yetishtirilgan bo'lsa, shundan, qattiq bug'doyning hissasi jami ekilgan bug'doyning 5 foiziga to'g'ri keldi yoki 30,0-35,0 mln.tonna qattiq bug'doy doni yetishtirildi.

Shuningdek, respublikamizda lalmikor yerlarda yetishtirilgan boshqoli don ekinlari hosili azaldan ichki ehtiyojni qondirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Lalmikor maydonlarda kuzgi boshqoli don va boshqa qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi ko'p jixatdan yog'in-sochin miqdorining vegetatsiya davrida taqsimlanishiga va tuproqdagi namlik miqdoriga qarab o'zgaradi. O'zbekiston Respublikasida lalmikor yerlardan samarali foydalanish, donli ekinlardan mo'l va sifatli hosil olish, yangi yaratilayotgan qattiq bug'doy navlarining biologik xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoitiga mos ilmiy asoslangan yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish g'allachilikdagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Sug'oriladigan va lalmikor maydonlarda xarid narxlari 3-sinf bug'doy doniga nisbatan 30-40 % yuqori bo'lgan kuchli va qattiq bug'doy donini

respublikamiz ehtiyojiga yetarli miqdorda yetishtirish, valyutani tejashga aholini sifatli non va makaron mahsulotlari bilan taminlashga va fermer xo'jaliklarida g'alla yetishtirish samaradorligini hamda rentabelligini oshirishga zamin yaratadi [1].

Tadqiqot uslubi va materiallar. Olib borilgan tajribalar lalmikor qir-adirlik mintaqasi tipik bo'z tuproqlari sharoitida o'tkazilgan. qattiq bug'doyning yangi Mingchinor navini hektariga 2,5 mln. dona unuvchan urug' meyorida ekib o'rganilgan. Dala tajribalaridagi barcha kuzatish, o'lchash, hisoblash va tahlil ishlari umumqabul qilingan uslub va tavsiyalar asosida olib borildi [3].

Tadqiqot natijalar va tahlillar. Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, Qashqadaryo viloyati lalmikor maydonlarida qattiq bug'doyning Mingchinor navi ekilgan dalalarda tuproqning namlik tartibotini o'rganish uchun tuproq namunalari 0-160 sm qatlamgacha quyidagi muddatlarda: ekish oldidan, bug'doy navlarining tuplash- naychalash va donning sut-mum pishish davrida olingan. Tuproq namligi termostat usulida namunalar 6 soat davomida 105⁰C xaroratda qizdirish yo'li bilan aniqlandi (1-jadval) [4].

1-jadval

Тупроқ қатлами, см	Намуна олинган муддатлар					
	Экиш олдида		Туплаш-найчалаш		Сут-мум пишиш	
	%	м ³ /га	%	м ³ /га	%	м ³ /га
0-20	7,8	190	17,2	420	14,8	361
20-40	10,2	261	21,3	545	16,9	433
40-60	9,9	261	20,6	544	14,9	393
60-80	10,2	265	16,2	421	15,9	413
80-100	11,3	298	14,8	391	11,2	296
100-120	12,3	334	10,8	294	9,7	263
120-140	10,8	289	11,2	300	8,6	230
140-160	10,0	270	9,9	267	9,0	243
0-60	9,3	712	19,7	1509	15,5	1187
60-120	11,3	897	13,9	1106	12,3	972
120-160	10,4	559	10,6	567	8,8	473
0-160	10,3	2168	14,7	3182	12,2	2632

Qattiq bug'doyni vegetatsiyasi davrida tuproq namligining o'zgarishi

(“Mingchinor” navi , 2017-2020 yy).

Olib borilgan tadqiqotlarda qattiq bug'doyning "Mingchinor" navi ekiladigan tajriba dalasida kuzgi g'alla ekish oldidan (ekish meyori 2,5 mln. dona/ga) tuproqning 0-160 sm qatlamida umumiy namlik miqdori qatlamlar bo'yicha 7,8 - 12,3% ni yoki gektariga 190-334 kubometrni tashkil etdi. Tuproq kesmasining 0-160 sm qatlamdagi o'rtacha namlik 10,3 foizni (2166 m³/ga) tashkil etgan. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tuproqning haydov qatlamidagi ekish oldidan namlik (7,8%) qattiq bug'doyning "Mingchinor" navi urug'ining unib chiqishiga va o'simlikning kuzgi vegetatsiyasiga ancha qulaylik yaratgan.

Qattiq bug'doy navining bahorgi vegetatsiyasi, ya'ni tuplash-naychalash bosqichida qishqi va bahorgi yog'in-sochinlar ta'sirida tuproqning 0-160 sm qatlamida namlik miqdori yanada ko'paydi va tuproq qatlamlari bo'yicha 3182 m³/ga ni tashkil etdi. Bu ma'lumotlarni 1-jadvaldagi ma'lumotlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak qattiq bug'doy navlarining tuplanish-naychalash davridagi namlik miqdori chegaralangan dala nam sig'imiga (CHDNS) nisbatan 66,7 va 70 % ni tashkil etadi. Boshqoli don ekinlarining o'sishi va rivojlanishi uchun maqbul tuproq namligi uning chegaralangan dala nam sig'imi (CHDNS) ning 65-70% ni tashkil etadi [2].

Qattiq bug'doyning sut-mum pishish davri don to'plashda eng maqbul davr hisoblanadi. Bu paytga kelib "Mingchinor" navi ekilgan variantlarda tuproqda mavjud namlik miqdori qatlamlar bo'yicha 8,6 foizdan (120-140 sm) 16,9 foizgacha (20-40 sm) bo'lgan ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Tuproqning 0-160 sm dagi 2632 metr kubni tashkil etdi.

Xulosa qilib aytganimizda qattiq bug'doyning "Mingchinor" navi ekilgan dalaning 0-160 sm qatlamida umumiy namlik zahirasi sut pishish fazasida 12,2 foizga yoki 2632 m³/ga ni tashkil etgan. Bu farq donning mum pishish davrida ham sezilarli darajada saqlanib qoldi va hosildorlikka ijobiy ta'sir etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xalilov U. Qattiq bug'doyni istiqbolli navlarini ko'paytirishning samaradorligi // "Tuproq unumdorligini oshirish, g'o'za va g'o'za majmuidagi ekinlarni parvarishlashda manba tejoychi agrotexnologiyalarni amaliyotga joriy etishning

ahamiyati” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maruzalari to‘plami, Toshkent, 2012. –B. 147-149

2. Шаганов, И.А. Практические рекомендации по освоению интенсивной технологии возделывания озимых зерновых культур / И.А. Шаганов - 2-е 196 издание, дополненное и переработанное - Минск: Издательство Равноденствие, 2008. - 180 с.

3. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари.- ЎзПИТИ, -Тошкент, 2007.-145 б.

4. Ўзбекистон республикаси худудида экиш учун тавсия этилган қишлоқ хўжалик экинлари Давлат реестри. –Тошкент: 2021. -110 б.

5. Каршиев А.Э., Бобомирзаев П.Х. Роль сорта, сроков и норм посева в технологии выращивания твёрдой пшеницы на богарах // журнал Актуальные проблемы современной науки, № 4, 2022, 44-47 стр.

6. Каршиев, А. Э., & Бобомирзаев, П. Х. (2023, January). ВЛИЯНИЕ СРОКОВ И НОРМ ВЫСЕВА НА РОСТ, РАЗВИТИЕ, УРОЖАЙНОСТЬ И КАЧЕСТВО ЗЕРНА НОВЫХ СОРТОВ ТВЁРДОЙ ПЩЕНИЦЫ В УСЛОВИЯХ БОГАРНЫХ ЗЕМЛЯХ НА ЮГЕ УЗБЕКИСТАНА. In *Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (Vol. 2, No. 2, pp. 163-169).

7. Qarshiyev, A. (2023). LALMIKORLIK SHAROITIDA QATTIQ BUG ‘DOYNING YANGI “MINGCHINOR” NAVI DON HOSILDORLIGINING EKISH MUDDATLARI VA ME’YORLARIGA BOG ‘LIQLIGI. *Innovatsion texnologiyalar*, 49(01), 89-91.

8. Karshiyev, A. E. (2023, February). FORMATION OF THE ROOT SYSTEM OF DURUM WHEAT PLANTED AT DIFFERENT PERIODS AND RATES OF RAINFALL. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 2, No. 1, pp. 461-466).

9. Karshiev, A. E. (2023, February). ЛАЛМИКОРЛИК ШАРОИТИДА ҚАТТИҚ БУҒДОЙ ФОТОСИНТЕТИК ФАОЛИЯТИНИНГ ЭКИШ МУДДАТИ ВА МЕЪЁРЛАРИГА БОҒЛИҚЛИГИ. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 2, pp. 262-268).

10. Karshiev, A. E. "EFFECTS OF SOWING CULTIVATION DIFFERENCES ON THE FORMATION OF DIFFICULT WHEAT ROOT SYSTEM IN RAINFED LAND." *Academic research in educational sciences* 3. Speical Issue 1(2022):110-113.
11. Каршиев А.Е., Бобомирзаев П.К. и Чориева М.М. (2021). ВОЗМОЖНОСТИ ВЫРАЩИВАНИЯ ТВЕРДОЙ ПШЕНИЦЫ В ЗАСУХИХ РЕГИОНАХ. *Вестник науки и образования* , (10-3), 31-34.
12. Karshiev, A. E. (2022). DEPENDENCE OF WHEAT PHYSYNTHETIC ACTIVITY IN RAINFED LAND ON SOWING STANDARTS. *Academic research in educational sciences*, 3(Speical Issue 1), 129-133.
13. Эшмаматович, Қ. А., & Бобомирзаев, П. Х. (2021). Янги қаттиқ буғдой навларининг дон ҳосилдорлиги ва 1000 дона уруғ вазнига экиш муддати ва меъерларининг таъсири. *Инновацион технологиялар*, (4 (44)), 77-80.
14. Эшмаматович, К.А. (2024). Влияние сроков посева на рост и развитие сортов твердой пшеницы в условиях засухи. *Сеть сельского хозяйства: Журнал сельского хозяйства и биологических наук* , 2 (1), 1-5.
15. Karshiyev, A. E. "FORMATION OF THE ROOT SYSTEM OF DURUM WHEAT PLANTED AT DIFFERENT PERIODS AND RATES OF RAINFALL." *Proceedings of International Educators Conference*. Vol.2.No.1. 2023
16. Eshmamatovich, K. A., Khursanovich, B. P., & Mavlonovna, C. M. (2021). OPPORTUNITIES FOR GROWING DURUM WHEAT IN DRYLAND REGIONS. *Вестник науки и образования*, (10-3 (113)), 31-34.
17. Eshmamatovich, K. A. (2024). Effect of Planting Periods on Growth and Development of Durum Wheat Cultivars Under Drought Conditions. *Web of Agriculture: Journal of Agriculture and Biological Sciences*, 2(1), 1-5.
18. Eshmamatovich, K. A., & Khudaynazarovich, J. B. (2024). EFFECTS OF PLANTING PERIODS ON PRODUCTIVE TILLERING AND PRODUCTIVE STALKS OF DURUM WHEAT CULTIVARS IN DRYLAND FARMING. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 2(2), 36-39.